

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 02/30.01.2020.K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

SIDDIQOVA AZIZAXON ABDUG‘AFFOROVNA

**IKKI TUR *SCUTELLARIA* VA *STACHYS HISSARICA* O‘SIMLIKLARINING
POLISAXARIDLARI**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Siddiqova Azizaxon Abdug‘afforovna

Ikki tur *Scutellaria* va *Stachys hissarica* o‘simliklarining polisaxaridlari 3

Сиддикова Азизахон Абдугаффоровна

Полисахариды двух видов растений *Scutellaria* и *Stachys hissarica*... 23

Siddikova Azizakhon Abdugafforovna

Polysaccharides of two plant species of *Scutellaria* and *Stachys hissarica*..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 47

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 02/30.01.2020.K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

SIDDIQOVA AZIZAXON ABDUG‘AFFOROVNA

**IKKI TUR *SCUTELLARIA* VA *STACHYS HISSARICA* O‘SIMLIKLARINING
POLISAXARIDLARI**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2019.2PhD/K206 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uzicps.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan..

Ilmiy rahbar:

Raxmanberdiyeva Rano Karimovna
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Normaxamatov Nodirali Saxobataliyevich
kimyo fanlari doktori
Shomurotov Shavkat Abduganiyevich
kimyo fanlari diktori

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy Universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «9» *dehabr* soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek ko'ch., 77. Tel. (+99871) 262-59-13, faks (+99871) 262-73-48, e-mail: plant_inst@icps.org.uz, ixrv@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'simlik moddalari kimyosi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*57* raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77. Tel. (+99871) 262-59-13, faks (+99871) 262-73-48, e-mail: khidirova.nazira@mail.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «27» *noyabr* kuni tarqatildi.

(2025 yil *27.11.* dagi *11* raqamli reyestr bayonnomasi).



[Signature]
Sh.Sh. Sagdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, akademik

[Signature]
N.K. Xidirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
kimyo fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

[Signature]
E.X. Botirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
kimyo fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda o‘simliklardan olingan moddalar kimyoviy tuzilishi va biologik faolligi xilma-xil bo‘lgan tabiiy birikmalarga bo‘lgan ehtiyoj yanada oshib bormoqda. O‘simlik moddalarining tarkibi, kimyoviy tuzilishi va biologik faolligini o‘rganish, bir tomondan, bioorganik kimyoni rivojlantiradi va unda yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy va samarali dori vositalarini yaratish va ularni tibbiyot amaliyotiga, shuningdek, sanoatning boshqa tarmoqlariga joriy etish uchun asos bo‘ladi.

Hozirgi kunda respublikamizda samarali dorivor xususiyatga ega bo‘lgan bir qancha o‘simliklar mavjud. Ular orasida *Scutellaria* va *Stachys* turlari (Lamiaceae oilasi) biologik faol moddalarning boy manbalari hisoblanib, bu birinchi navbatda ushbu o‘simliklarga xos bo‘gan va tarkibidagi flavonoidlar, iridoidlar, di- va triterpen birikmalaridan iborat ikkilamchi metabolitlariga bog‘liq. Biroq, quyi molekularli birikmalar ajratilgandan so‘ng, o‘simlikda oqsillar, uglevodlar kabi biologik faol yuqori molekularli birikmalar qoladi, ular hozirgacha to‘liq o‘rganilmagan. Shu bois mahalliy o‘simliklar *Scutellaria* va *Stachys* va ularning ikkilamchi resurslarini har tomonlama o‘rganish o‘simliklarning kimyoviy tarkibini to‘liq aniqlash imkonini bersa, boshqa tomondan esa o‘simlik resurslaridan chiqindisiz foydalanish muammosini hal qiladi.

Hozirgi vaqtda adabiyotlarda antioksidant, o‘smalarga qarshi faollikka ega bo‘lgan *Scutellaria baicalensis* Georgi. va *S. barbata* D.Don. polisaxaridlarini o‘rganish haqida ma‘lumotlar mavjud, ammo O‘zbekiston Respublikasida o‘sadigan *Scutellaria* va *Stachys* o‘simliklari uglevodlarining kimyoviy tarkibi va foydali xususiyatlari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotlar yo‘q. Shu sababli mahalliy hududning *Scutellaria* va *Stachys* turkumi o‘simliklari polisaxaridlarini tadqiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi «2022-2026 yillarda respublika farmatsevtika tarmog‘ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»¹ gi PF-55-son va 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida»² gi PF-60-son Farmonlarida, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya, VI. “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy olimlar tomonidan Lamiaceae oilasiga mansub o‘simliklardan polisaxaridlarni ajratib olish, ularning tuzilishini tadqiq qilish va biologik faolligini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Bu yo‘nalishning rivojlantirishga Pengda Sun, Hanqing Li, Juan Su, Li Li,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi PF-55-son farmoni

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni

Xiaoyi Xu, Xiao-Kun Yang, Yanwei Wang, Song Gaochen, Li Cui, Xiangyang Wu, Chun-Lin Ye kabi xorijlik olimlar, shuningdek, L.M. Zaxarova, D.N. Olennikov, V.B. Xobrakovlar salmoqli hissa qo‘shganlar. D.N. Olennikov hammualliflari bilan *Scutellaria barbata* va *S. baicalensis* o‘simliklarining yer ustki qismidan polisaxaridlar ajratib olgan. Arabinogalaktanlarning tuzilishini isbotlagan va biologik faolliklarini o‘rgangan. Song Gaochen va boshqalar *Scutellaria barbata* dan o‘simtaga qarshi faollikka ega bo‘lgan polisaxarid ajratib olgan. D.N. Olennikov *S. baicalensis* o‘simligining yer ustki qismidan atsetillangan glyukoarabinogalaktan, ildizlaridan esa glyukan ajratib olgan.

Respublikamiz olimlari – A.O. Arifhojayev, A. Qurbanova, D.A. Rahimov, D.Z. Azizov, R.K. Rahmanberdiyeva, V.N. Sirov, Z.A. Xushbaktova, D.K. Ogay va N.A. Elovalar galaktan saqlovchi polisaxaridlarning tuzilishi va ularning biologik faolliklarini o‘rganganlar.

Adabiyot ma’lumotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, erishilgan yutuqlarga qaramay mahalliy hududning *Scutellaria* va *Stachys hissarica* o‘simliklarining polisaxaridlari o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘simlik moddalari kimyosi institutining FA-F6-007-sonli “Dorivor o‘simliklar polisaxaridlari va ularning modifikatsiyalangan shakllarini o‘rganish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot fundamental loyihasi (2017-2020) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Scutellaria adenostegia*, *S. comosa* va *Stachys hissarica* o‘simliklarining polisaxaridlarini tadqiq qilish. Glyukoarabinogalaktanlarning tuzilishi, xossalari va ularning o‘ziga xos biologik faolliklarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

-*Stachys hissarica*, *Scutellaria adenostegia* va *S. somosa* ildizlari va yer ustki qismlaridan polisaxaridlarning turli guruhlarini (suvda eriydigan polisaxaridlar, pektin moddalari, gemitsellyulozalar) ajratib olish, ularning fizik-kimyoviy parametrlari va monomer tarkibini tahlil qilish;

- *Stachys hissarica* yer ustki qismi va ildizidagi uglevodlar kompleksini turli vegetatsiya davrlariga ko‘ra o‘rganish;

- *Stachys hissarica* ning suvda eruvchan polisaxaridining tuzilishini aniqlash;

- *Scutellaria adenostegia* va *S. comosa* dan gomogen glukoarabinogalaktan fraksiyalarini ajratish va ularning tuzilishini kimyoviy (periyodat va xromli oksidlash, metillash) va spektral (GX/MS, ^{13}C va ^1H YaMR spektroskopiya) usullari yordamida tahlil qilish;

- ajratib olingan polisaxaridlarning biologik faolligini aniqlash va biologik faollikning polisaxarid tuzilishiga bog‘liqligini o‘rganish;

- polisaxaridlar va *Allium cepa* (piyoz po‘stlog‘i) ekstrakti asosida antibakterial vosita olish tadqiqotlarini amalga oshirish.

Tadqiqotning obykti sifatida *Scutellaria adenostegia*, *S. comosa* o‘simliklari yer ustki qismi va ularning ikkilamchi resurslari, hamda *Stachys hissarica* o‘simligi yer ustki qismi va ildizi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti suvda eruvchan polisaxaridlar, pektin moddalari, gemitsellyulozalar, glukoarabinogalaktanlarni ajratish, ularning tuzilishini kimyoviy va spectral usullarda tavsiflash, biologik faolliklarini aniqlash.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar jarayonida kimyoviy: to'liq kislotali gidroliz, periyodat va xromli oksidlash, polisaxaridlarni metillash, analitik: polisaxaridlarning monosaxarid tarkibini sifat va miqdoriy tahlil qilish, pektin moddalarining eterifikatsiya darajasini titrimetrik usulda aniqlash, fizik-tadqiqot: YSSX, IQ, GX, GX/MS, ^{13}C va ^1H YaMR-spektroskopiya, shuningdek, ikki o'lchamli (^1H , COSY, HSQC, HSQC-TOCSY, HMBC) va spektral usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor *Scutellaria adenostegia*, *S. comosa* va *Stachys hissarica* ning yer ustki qismlaridan, quyi molekulari birikmalar ajratib olingandan so'ng, suvda eruvchan polisaxaridlar (SEPS), pektin moddalari (PM) va gemitsellyulozalar (GMS) olingan, ularning fizik-kimyoviy xossalari, monosaxarid tarkiblari o'rganilgan;

Stachys hissarica ning yer ustki qismidan Mm 43.8 va 29.5 kDa, monosaxarid tarkibi arabinoza qoldiqlariga boy bo'lgan (50.54 va 60.41%) suvda eruvchan polisaxarid fraksiyalari PS-St-2 va PS-St-3 ajratib olingan;

kimyoviy va YaMR spektroskopiya ma'lumotlari SEPS makromolekulasi α -3)- α -Araf-(1 \rightarrow), 4)- β -Xylp-(1 \rightarrow , \rightarrow 3- α -Glc p-(1 \rightarrow va 3,6- β -Gal p fragmentlaridan, hamda qaytarilmaydigan uchida T- α -Araf va T- α -Glc p qoldiqlaridan iborat ekanligini ko'rsatgan. Olingan natijalarga asoslanib, *St. hissarica* SEPS glyuko- va/yoki galaktoksiloarabanlardan tashkil topganligi isbotlangan;

birinchi marta *S. adenostegia* va *S. comosa* SEPS laridan GAG-Sa va GAG-Sc glyukoarabinogalaktanlar mos ravishda ajratib olingan va ularning tuzilishi kimyoviy va spektral usullar bilan isbotlangan. Glyukoarabinogalaktanlar GAG-Sa va GAG-Sc tarmoqlangan polisaxaridlar bo'lib, makromolekulaning asosiy zanjiri β -1,6 glikozid bog'i bilan bog'langan galaktopiranoza qoldiqlaridan iborat, bir-biridan yon zanjirlari bilan farq qilishi aniqlangan. GAG-Sa yon zanjiri β -D-galaktopiranoza, α -D-glyukopiranoza, α -L-arabinofuranoza qoldiqlari va uning 1,3-bog'i bilan bog'langan disaxarid fragmenti, shuningdek asosiy zanjirga C-3 bilan bog'langan 6-OMe- α -glyukuron kislotasining mavjudligi bilan ifodalangan;

GAG-Sc esa C-2 holatda terminal arabinofuranoza va glyukoza, shuningdek α -Araf-(5 \rightarrow 1)- α -Araf oligosaxarid fragmenti mavjudligi qayd etilgan;

Stachys hissarica va *S. comosa* SEPS ning *Lactobacillus casei* K7 probiotik shtamining o'sishi bo'yicha prebiotik faolligi, MRS buloniga *St. hissarica* SEPS qo'shilishi *Lactobacillus casei* K7 shtamining o'sishini yanada oshishiga va SEPS *S. comosa* va nazorat bilan solishtirganda (9×10^9 KOE/ml) sog'lom hujayralarning titrini (2×10^{10} KOE/ml) yuqori bo'lishiga olib kelgan;

ilk bor *S. adenostegia* va *S. comosa* ning suvda eruvchan polisaxaridlari va pektin moddalarining fagotsitoz jarayoniga, ya'ni neytrofillarning fagotsitar indeksiga ta'siri ko'rsatilgan;

S. comosa PM ning yaraga qarshi faolligi ularning fizik-kimyoviy ko'rsatgichlariga: molekulyar og'irligi, qovushqoqligi, eterifikatsiya darajasiga va ayniqsa gel xosil qilish xususiyatlariga bog'liqligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: suvda eruvchan polisaxaridlar va *Stachys hissarica* pektin moddalarining *Lactobacillus casei* K7 shtammiga nisbatan yuqori prebiotik faolligi ko'rsatilgan. *S. comosa* pektin moddalarining gastroprotektor xususiyatlari aniqlangan.

Birinchi marta *S. comosa* polisaxaridlari va *Allium cepa* L. po'stlog'ining quruq suvli ekstrakti asosida mikroblarga qarshi faollikka ega bo'lgan fitovosita olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan polisaxaridlarning tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari va biologik faolligini aniqlash uchun zamonaviy fizik, spektral va biologik tahlil usullaridan foydalanilgan holda erishilgan. Natijalar xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalarida muhokama qilingan, xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, *St. hissarica*, *S. adenostegia* va *S. comosa* polisaxaridlarining xossalari, tuzilishi va biologik faolligi borasida yangi ma'lumotlar olingan. *S. adenostegia* va *S. comosa* glyukoarabinogalaktanlarining tuzilishi va ularning biologik faolligi qiyosiy tahlil qilingan. Natijada, ularning tuzilishi va fagotsitar hamda mikroblarga qarshi faolligi bilan bog'liqligi haqida qiyosiy ma'lumotlar olingan. Biologik faollikka birinchi navbatda makromolekula zanjirining tarmoqlanganligi va yon zanjirdagi oligosaxarid fragmentlari, monosaxarid qoldiqlari va glikozid bog'larining turlari muhim hissa qo'shishi ko'rsatilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, polisaxaridlarning immunologik faollikka (fagotsitar faollik va fagotsitar indeks) ta'siri o'rganilgan. *S. comosa* SEPS prednizolonga nisbatan o'ldirilgan stafilokokk zarrachalar sonini 35% ga, *S. adenostegia* PM -30% ga oshirishi ko'rsatilgan. Bu ularni birlamchi va ikkilamchi immunitet tanqisligi holatlarida tashxis qo'yishda qo'llash imkonini bergan.

O'zR FA Immunologiya va odam genomikasi institutidan ikki turdagi *Scutellaria* polisaxaridlarining fagotsitar faolligi bo'yicha (2025-yil 25-iyul), Mikrobiologiya instituti AllWellLab MChJ *Stachys hissarica* va *Scutellaria* polisaxaridlarining prebiotik faolligi (2023-yil 14-avgust) va O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi institutining *Scutellaria comosa* pektin moddalarining yallig'lanishga qarshi va oshqozonni himoya qiluvchi faolligi (12.05.2022) to'g'risida xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Ikki tur *Scutellaria* va *Stachys hissarica* o'simliklarining polisaxaridlarini tadqiq qilish bo'yicha olingan natijalar asosida:

birinchi marta *S. comosa* polisaxaridlari va *Allium cepa* L. (piyoz po'stlog'i) ning quruq suvli ekstrakti asosida antimikrob fitovosita olingan. Fitovosita *Pseudomonas aeruginosa* 003841/114, *Proteus mirabilis* 9, *Staphylococcus aureus* va *Bacillus subtilis* BKM bakteriyalarining o'sishini samarali tarzda ingibirlagan.

Ilmiy tadqiqot natijalari asosida mikroblarga qarshi vositani ishlab chiqish usuliga O'zbekiston Respublikasining IAP 7778 patenti olingan (reestrda 2024-yil 30-iyulda ro'yxatga olingan). Natijada, fitovosita prebiotik va antibakterial ta'sirga ega, shu jumladan mikroorganizmlarning antibiotiklarga chidamli shakllariga qarshi dori turlarini kengaytirish imkonini beradi.

Polisaxaridlarning biologik faolligini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar O'zR FA O'MKI ning yuqori molekular o'simlik moddalari kimyosi laboratoriyasida bazaviy moliyalashtirish doirasida 2021-2025-yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarni bajarishda foydalanilgan (Ma'lumotnoma №4/1255-497 27 fevral 2025 y.). Natijada, o'rganilgan polisaxaridlarning prebiotik, fagotsitik va mikroblarga qarshi faolligi ular asosida yangi dorivor vositalar yaratish imkonini beradi.

Polisaxaridlarning kimyoviy tuzilishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar O'zR FA O'MKI ning Yuqori molekular o'simlik moddalari kimyosi laboratoriyasida bazaviy moliyalashtirish doirasida 2021-2025-yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarni bajarishda foydalanilgan (ma'lumotnoma №4/1255-2476 17 oktabr 2025 y.). Natijada, polisaxaridlarning biologik faolligining kimyoviy tuzilishiga bog'liqligini o'rganish ularning ta'sir mexanizmlarini ochishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 9 ta ilmiy-amaliy konferensiya va simpoziumlarda, jumladan, 3 ta xalqaro va 6 ta respublika konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 8 ta ilmiy maqola, jumladan, Scopus jurnallarida 4 ta, MDH jurnalida 1 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarida 3 ta ilmiy maqola chop etilgan, 1 ta patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyaning mavzusining dolzarbligi va zarurati, maqsadi va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqotning ob'ekti va predmeti ifodalangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlanish yo'nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish asoslari keltirilgan va nashr qilingan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "Lamiaceae oilasiga mansub o'simliklar polisaxaridlari" deb nomlangan birinchi bobida Lamiaceae oilasiga mansub o'simliklar polisaxaridlarining xossalari, tuzilishi va biologik faolligi to'g'risidagi adabiyot ma'lumotlari keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Stachys hissarica polisaxaridlari va ikki tur Scutellaria" nomli ikkinchi bobida o'simlikning yer ustki qismi va ildizidagi polisaxaridlarni o'rganish natijasida olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "Tajriba qism" deb nomlanib, unda polisaxaridlarni ajratish, strukturasi kimyoviy va spektral tadqiq qilish usullari keltirilgan.

***Stachys hissarica* o'simligi polisaxaridlari**

Stachys hissarica o'simligining yer ustki qismidan, quyi molekular moddalarning ekstraksiyasidan so'ng, suvda eruvchan polisaxaridlar (SEPS), pektin

moddalari (PM) va gemitsellyulozalar (GMS) ajratib olindi hamda ularning unumi va monosaxarid tarkibi aniqlandi (1-jadval). 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘simlikning yer ustki qismida pektin moddalari (3.1%) va gemitsellyulozalar (5.78%) mos ravishda ustunlik qiladi, suvda eruvchan polisaxaridlar miqdori esa, 3.2% ni tashkil etadi. Ajratilgan polisaxaridlarning monosaxarid tarkibi neytral monosaxaridlar va uron kislotalardan iborat.

1-Jadval. *Stachys hissarica* o‘simligining yer ustki qismi uglevodlarining unumi va monosaxarid tarkibi

Polisaxaridlar	Ekstaktsiya sharoiti	Unumi, %	Monosaxarid tarkibi, YSSX, %					UA, %
			<i>Gal</i>	<i>Glc</i>	<i>Ara</i>	<i>Xyl</i>	<i>Rha</i>	
SEPS-s	H ₂ O, T=20°C	1.8	7.87	27.17	64.9	–	–	25.4
SEPS-q	H ₂ O, T=80-90°C	1.4	–	35.1	64.89	-	–	28.1
PM	C ₂ H ₂ O ₄ : (NH ₄) ₂ C ₂ O ₄ (1:1)	3.1	3.76	12.86	27.45	27.92	28.01	81.2
GMS-A	5% NaOH	1.3	3.24	–	24.91	–	71.85	+
GMS-B		5.4	11.02	–	40.35	–	48.63	+

Suvda eruvchan polisaxaridlar (SEPS) ajratib olingandan so‘ng, xomashyo qoldig‘idan ketma-ket tarzda unumi 3.1%, eterifikatsiya darajasi (ED) 78.4% bo‘lgan yuqori eterifikatsiyalangan pektin moddalari, hamda unumi mos ravishda 2.79% va 3.27% ni tashkil etgan gemitsellyulozalar GMS-A va GMS-B ajratib olindi.

Pektin moddalari (PM) krem rangli kukun bo‘lib, 0.1 n NaOH eritmasida to‘liq eriydi va nisbiy qovushqoqligi ($\eta_{\text{nisb.}}$) = 3.22 (c = 1.0; 0.1 n NaOH), $[\alpha]_{\text{D}} +148^{\circ}$ (c = 1.0; 0.1% NH₄OH) bo‘lgan qovushqoq eritma hosil qiladi. Qisman kislotali gidroliz va oksidlash natijalari *Stachys hissarica* pektin moddalarining asosiy zanjiri α -1,4-galakturonandan iborat ekanligi va neytral qandlar yon zanjirda joylashganligini ko‘rsatdi.


GMS-A va GMS-B qoramtir jigarrang amorf kukunlar bo‘lib, o‘zaro eruvchanligi bilan farqlanadi: GMS-A suyultirilgan ishqor eritmalarida to‘liq eriydi, GMS-B esa suvda eriydi. Gemitsellyulozalarda dominant monosaxarid ksiloza bo‘lib, bu biopolimerlarga xosdir.

Stachys hissarica ning yer ustki va ildiz qismlarida uglevodlar to‘planishining vegetatsiya davrlari bo‘yicha dinamikasi o‘rganildi. SEPS ning yuqori unumi yer ustki qismida vegetatsiya boshida (4.3%), PM va GMS - gullash davrida (mos ravishda 3.3 va 6.1%) ko‘proq to‘planishi kuzatildi. Ajratilgan barcha polisaxaridlar neytral monosaxaridlar va uron kislotalardan tashkil topgan bo‘lib, monosaxaridlarning miqdoriy tarkibi bilan farqlanadi.


Stachys hissarica ning dastlabki xomashyosi va ikkilamchi resurslaridan ajratilgan polisaxaridlarni taqqoslash natijasi, ularning unumi va monosaxarid tarkibida keskin farq yo‘qligini ko‘rsatdi. Har ikki holatda asosiy monosaxaridlar galaktoza, glyukoza va arabinoza hisoblanadi. Biroq, o‘simlikning yer ustki qismidan olingan polisaxaridlar uron kislotalarning yuqoriligi (30.8–78.3%) bilan farq qiladi.

***Stachys hissarica* ning suvda eruvchan polisaxaridi**

SEPS-s - to‘q jigarrang rang kukun bo‘lib, molekulyar massasi 30–70 kDa ni tashkil etadi. Uning tarkibi galaktoza, glyukoza va arabinozadan iborat bo‘lib, ular orasidagi nisbati 1:3.5:8.3 ni tashkil etadi. Shuningdek, 25.4% uron kislotalar mavjudligi karbazol usuli yordamida aniqlangan. SEPS ning IQ-spektrida polisaxaridlarga xos quyidagi yutilish sohalari aniqlangan: 3436 cm^{-1} (OH-guruhi), 1742 cm^{-1} karbonil (C=O) guruhi, 1088 cm^{-1} piranoz halqasi, 1624 cm^{-1} karboksil (COOH) guruhi, 830 cm^{-1} α -glikozid bog‘i, 760 cm^{-1} β -glikozid bog‘i (1-rasm).



1-rasm. IQ-spektrlari 1-SEPS-s, 2-SEPS-q



2-rasm. SEPS DEAE-sellyuloza ustunida ajratish

SEPS namunasi DEAE-tsellyuloza ion-almashinish ustuni orqali o‘tkazildi va suv bilan yuvish natijasida neytral polisaxarid (NPS) 29% umum bilan olindi (2-rasm). NPS fraksiyalash jarayoni spirt yordamida amalga oshirilib, 4.7% dan 32.5% gacha unumga ega beshta fraksiya ajratib olindi (2-jadval). Birinchi uchta fraksiya o‘zaro monosaxarid tarkibi bo‘yicha miqdoriy farqlarga ega bo‘lsa, 4- va 5-fraksiyalarda ksilozaning yo‘qligi kuzatildi. Barcha fraksiyalarda arabinozaning ustunligi qayd etildi (2-jadval).

2-Jadval. *Stachys hissarica* NPS fraksiyasining unumi va monosaxarid tarkibi

Fraksiyalar	Unum, %	Monosaxarid tarkibi, % (YSSX)				
		<i>Gal</i>	<i>Glc</i>	<i>Ara</i>	<i>Xyl</i>	<i>Ara/Xyl</i>
Fr.1	6.5	20.9	7.1	37.2	34.8	–
Fr.2 (PS-St-2)	32.5	13.9	6.9	60.4	18.8	3.2:1
Fr. 3 (PS-St-3)	18.9	13.4	16.7	50.5	19.4	2.6:1
Fr.4	4.7	8.9	16.9	74.2	–	–
Fr.5	18.0	4.6	15.5	79.9	–	–

Arabinozaning yuqori miqdori 4- va 5-fraksiyalarda aniqlanib, ularning miqdori mos ravishda 74.23 va 79.87% ni tashkil etdi. Ushbu fraksiyalar monosaxarid tarkibiga ko‘ra galaktoglyukoarabanlarga mansubdir. 2- va 3-fraksiyalar esa nisbatan yuqori unumga ega bo‘lib, mos ravishda 32.5 va 18.9% ni tashkil etdi. Fraksiyalarning gomogenligini aniqlash maqsadida ular sefadeks G-100 ustuni orqali gel-xromatografiya usulida tahlil qilindi. Suv bilan yuvish natijasida PS-St-2 va PS-St-3 fraksiyalari olindi, ularning molekulyar massasi 43.8 va 29.5 kDa ni tashkil etdi. Fraksiyalarning asosiy monosaxaridlari arabinoza va ksilozadan iborat bo‘lib, ularning nisbati mos ravishda 3.2:1 va 2.6:1 ni tashkil etdi. Tuzilish tahlili ^{13}C va ^1H YaMR spektroskopiyasi usullari yordamida o‘rganildi.

PS-St-3 ning ^{13}C YaMR spektrida 66.32 m.u. da signal C-6 almashingan glyukopiranozaga tegishli. PS-St-3 ning ^1H YaMR spektrida 4.31 (H-1), 3.39 (H-2), 4.07 (H-4), 3.65 (H-5) va 3.88 m.u. (H-6) galaktopiranoza qoldiqlarining kimyoviy siljishi aniqlandi. 68.69 m.u. va 69.1 m.u. kimyoviy siljishlar $\rightarrow 6)$ - β -Galp-(1 \rightarrow) qoldiqlar mavjudligini ko'rsatdi, HSQC spektrida 76.64/3.64 m.u. da korrelyatsiya cho'qqilari C5/H5 galaktozaga tegishli.

3-Jadval. PS-St-2 va PS-St-3 fraksiyalarining ^1H va ^{13}C YaMR spektrlaridagi kimyoviy siljishlari

Monosaxarid qoldiqlari	Kimyoviy siljishlar (δ , m.u.)					
	C1/H1	C2/H2	C3/H3	C4/H4	C5/H5	C6/H6
PS-St-2						
$\rightarrow 6)$ - β -Galp-(1 \rightarrow)	103.48 4.31	73.77 3.39	-	68.69 4.07	76.77 3.65	69.91 3.88
$\rightarrow 3)$ - α -GlcP-(1 \rightarrow)	-	71.58 3.651	83.91 3.80	69.1 3.39	76.77 3.39	66.91 4.07
3)- α -Araf-(1 \rightarrow)	107.49 4.95	76.64 4.08	83.90 3.90	81.39 4.08	57.49 3.51(3.64)	-
$\rightarrow 4)$ - β -Xylp-1 \rightarrow	-	75.18 3.40	76,64 3.51	79,15 3.78	- 4.08;3.40	-
PS-St-3						
$\rightarrow 3,6)$ - β -Galp-(1 \rightarrow)	104.19 -	72.80 3.78	83.90 3.78	71.51 4.08	76.64 3.90	71.51 4.08 (3.90)
T- α -GlcP	-	72.28	-	3.40	-	61.33 3.64; 3.90
$\rightarrow 3)$ - α -GlcP-(1 \rightarrow)	103.48 -	72.28 3.51	83.90 3.78	-	76.64 3.40	66.32 4.04; 3.90
3)- α -Araf-(1 \rightarrow)	107.49 4.95	76.64 4.08	83.90 3.90	81.39 4.08	57.49 3.51 (3.64)	-
T- α -Araf-(1 \rightarrow)	109.32 5.12	79.15 4.08	81.39 3.78	83.90 -	61.33 3.64	-
$\rightarrow 4)$ - β -Xylp-1 \rightarrow	-	75.18 3.40	76.64 3.51	79.15 3.78	- 4.08;3.40	-


PS-St-2 va PS-St-3 ^{13}C YaMR spektrida signalarning katta qismi arabinoza qoldiqlariga tegishli ekanligi aniqlandi. $^{13}\text{C}/^1\text{H}$ anomer sohasida yuqori intensivlikdagi α -Araf qoldiqlarining signallari 109.32/5.12 m.u. da, shuningdek 3)- α -Araf-(1 \rightarrow) qoldiqlari - 107.49/4.95 m.u. da qayd etildi. Bu natijalar makromolekula tarkibida α -Araf-(1 \rightarrow 3)- α -Araf-(1 \rightarrow 3) fragmentining mavjudligini taxmin qilish imkonini berdi. 4)- β -Xylp-(1 \rightarrow) qoldiqlarining C-1 va C-4 atomlariga mos keluvchi anomer proton va uglerod signallari mos ravishda 103.48–103.78 m.u. va 76.64–76.77 m.u. diapazonida joylashgan. YaMR spektroskopiya ma'lumotlari SEPS makromolekulasi α - 3)- α -Araf-(1 \rightarrow), 4)- β -Xylp-(1 \rightarrow), $\rightarrow 3)$ - α -GlcP-(1 \rightarrow) va 3,6- β -Galp fragmentlaridan va qaytarilmaydigan uchida T- α -Araf va T- α -GlcP qoldiqlaridan iborat ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalarga asosanib, *St. hissarica* SEPS glyuko-va/yoki galaktoksiloarabanlardan tashkil topganligi isbotlandi.

Scutellaria polisaxaridlari


Scutellaria adenostegia glyukoarabinogalaktanlari

Scutellaria adenostegia ning yer ustki qismidan issiq suvda ekstraksiya qilish natijasida unumi 13% va Mm 37.5 kDa, monosaxarid tarkibi galaktoza (14%), glyukoza (5.6%), arabinoza (31%), ksiloza (4.4%) va uron kislotasidan (43.6%) tashkil topgan suvda eruvchan polisaxarid olindi.

SEPS oq rangli amorf kukun bo‘lib, suvda eriydi va yod bilan sifat reaksiyasini bermaydi, bu esa glukan turidagi polisaxaridlarning mavjud emasligini ko‘rsatadi. IQ-spektrida 1598 cm^{-1} da yutilish chizig‘ining mavjudligi oqsil komponentlarning borligini bildiradi. Ushbu oqsillar Sevaga usuli bilan olib tashlanib, tozalangan SEPS olindi. Tozalangan SEPS DEAE-tsellyuloza (CH_3COO^- shakli) ustunida suv, 0.1 N CH_3COONa va 0.5 N NaOH eritmalari yordamida yuvish yo‘li bilan ajratildi va natijada neytral (NPS) hamda nordon polisaxaridlari (NPS) olindi (4-jadval).



3-rasm. *S. comosa* III fraksiyasini DEAE-tsellyuloza ustini orqali fraksiyalash



4-rasm. GAG-Sa ning Sephadex G-75 da gel-xromatografiyasi

4-Jadval. *Scutellaria adenostegia* o‘simligining SEPS fraksiyalarining unumi va monosaxarid tarkibi

Fraksiyalar	Unum, %	Monosaxaridlar nisbati, %					GalA, %
		Gal	Glc	Ara	Xyl	Rha	
NPS	20.0	8.2	1.3	4.5	4.41	-	-
KPS, (CH_3COONa)	23.0	3.5	-	4.0	2.5	-	85
KPS, (NaOH)	47.0	1.1	12.7	-	1.2	-	90

Neytral polisaxarid (NPS) suvda to‘liq erib, tiniq eritma hosil qiladi. NPS ni fraksiyalash natijasida unumi 21%, monosaxarid tarkibi glyukoza (2.6%), galaktoza (28.5%), arabinoza (19.8%) dan tashkil topgan gomogen glyukoarabinogalaktan fraksiyasi olindi va GAG-Sa deb nomlandi.

Glyukoarabinogalaktan (GAG-Sa) – oq rangli amorf kukun, suvda yaxshi eriydi. Sefadeks G-75 gel-xromatografiyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, gomogen bo‘lib, molekulyar massasi 17 kDa ga teng (rasm 4). GAG-Sa ning tuzilishi periyodat va xromli oksidlash, hamda metillash usullari bilan aniqlandi. Smit parchalanish reaksiyasi natijasida hosil bo‘lgan mahsulotlarda glitserin, galaktoza va arabinoza aniqlandi. Glitserin mavjudligi GAG-Sa makromolekulasida 1→2, 1→3 yoki 1→6 turdagi glikozid bog‘larining borligini ko‘rsatdi. Permetilat gidrolizati mahsuloti

tarkibida YQX usuli orqali ma'lum standart namunalarga taqqoslash asosida quyidagi metil hosilalari aniqlandi: 2,3,4,6-tetra-*OMe*-Galp, 2,3,4,6-tetra-*OMe*-GlcP, 3,4-di-*OMe*-Galp, 2,4-di-*OMe*-Galp, 2,3,4-tri-*OMe*-Galp, 2,3,4-tri-*OMe*-Araf va 2,5-di-*OMe*-Araf. Asosiy mahsulot sifatida 2,3,4-tri-*OMe*-Galp ning aniqlanishi polimer tarkibidagi monosaxarid qoldiqlari o'rtasida 1→6 turdagi glikozid bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatadi. 2,4-di-*OMe*-Galp ning identifikatsiyasi asosiy zanjirda C-3 atomida yon tarmoqlanishlar mavjudligidan dalolat beradi. 2,3,4-tri-*OMe*-Araf va 2,4-di-*OMe*-Araf ning aniqlanishi esa arabinoza yon zanjirida qisqa Araf-(1→3)-Araf tipidagi fragmentlar borligini bildiradi. 2,3,4,6-tetra-*OMe*-Galp hamda 2,3,4,6-tetra-*OMe*-GlcP ning mavjudligi D-galaktoza va D-glyukoza qoldiqlari polisaxaridning qaytarilmaydigan uchlarida joylashganligini belgilaydi.

GAG-Sa peratsetatining xromli oksidlanishi natijalari, hosil bo'lgan yakuniy mahsulotning gidrolizi va QX tahlili glyukozaning α -konfiguratsiyaga ega ekanligini ko'rsatdi.

¹³C YaMR spektrida polisaxaridlarning asosiy komponentlari sifatida β -Galp, α -Araf qoldiqlari ekanligi aniqlandi (5-jadval). ¹H va ¹³C YaMR spektrlari tahlili natijasida eng kuchli signallar 1,6 va 1,3 bog'i bilan bog'langan β -D-galaktopiranoza hamda α -L-arabinofuranoza qoldiqlariga tegishli ekanligi taxlil qilindi. GAG-Sa ning ¹³C YaMR spektridagi δ_C 103.24, 110.19 m.u. anomer signallari galaktoza va arabinozaning C-1 atomlariga mos keladi.

5-Jadval. Glyukoarabinogalaktan GAG-Sa ning asosiy fragmentlarining ¹H va ¹³C YaMR spektrlaridagi kimyoviy siljishlari

Monosaxarid qoldiqlari	Kimyoviy siljishlar (δ , m.d.)					
	C-1	C-2	C-3	C-4	C-5	C-6
→6- β -Galp-(1→	106.23 4.42	70.79 3.58	73.57 3.67	70.79 3.98	74.73 3.91	64.05 4.05
→3-Galp- β -1→	103.24 4.42	71.49 3.50	81.91 3.67	70.79 -	74.73 3.98	62.5 3.91 (3.67)
→3,6-Galp- β -1→	106.23 4.53	72.95 3.74	84.17 3.84	71.49 4.02	76.33 3.91	70.79 4.02
α -L-Araf-(1→	112.07	84.03	76.78	79.57	64.05	-
→3)- α -L-Araf-(1→	110.19 5.26	84.03 4.42	85.54 3.94	84.69 4.23	64.05 3.74	-
→3)- α -GlcP-1)→	-	72.95 3.58	81.9 3.78	74.53 3.91	70.79 3.35	66.10 3.85

Galaktoza va arabinoza qoldiqlaridagi almashingan uglerod atomlarining kimyoviy siljishlariga mos keluvchi almashinmagan monosaxaridlar bilan solishtirish orqali aniqlandi. 173.53 m.u. (C-6) va 3.67 / 55.73 m.u. (*OMe*) signallari 6-*OMe*- α -glyukuron kislotaga (α -GlcPA6-*OMe*) tegishli. GAG-Sa ning ¹³C YaMR spektrida 110.19 m.u. va 85.54 m.u. da qayd etilgan anomer va C-3 atomlariga tegishli signallar α -1,3 glikozid bog'i bilan bog'langan arabinofuranoza qoldiqlari mavjudligidan dalolat beradi.

Olingan natijalar majmui GAG-Sa ning strukturaviy fragmentini quyidagicha tasvirlash imkonini berdi:

Scutellaria comosa ning GAG-*Sco* glyukoarabinogalaktanining tuzilishi

Glyukoarabinogalaktan GAG-*Sco* amorf oq kukun bo‘lib, krem rangga ega, suvda to‘liq eriydi, $[\alpha]_D^{20} +25^\circ$ (c 0.1, H₂O) va YSSX bo‘yicha Mm 15 kDa ga ega. GAG-*Sco* permetilatining gidroliz mahsulotlari standart namunalar bilan YQX usuli orqali taqqoslanganda quyidagi komponentlar aniqlangan: 2,3,4,6-tetra-*OMe*-Galp, 2,3,4-tri-*OMe*-Galp, 3,4-di-*OMe*-Galp, 2,3,5-tri-*OMe*-Araf, 2,3-di-*OMe*-Araf, kam miqdorda 2,4,6-tri-*OMe*-Glc p. 2,3,4-tri-*OMe*-Galp ning aniqlanishi monosaxarid qoldiqlari orasida 1→6 turdagi glikozid bog‘lar mavjudligini ko‘rsatadi, 3,4-di-*OMe*-Galp ning aniqlanishi esa zanjirning C-2 atomi orqali tarmoqlanganligini bildiradi. 2,3,5-tri-*OMe*-Araf va 2,3-di-*OMe*-Araf ning aniqlanishi arabinozaning yon zanjir tarkibida oligosaxarid fragmentlari ko‘rinishida mavjudligini ko‘rsatadi.


GAG-*Sco* ning tuzilishi spektral tahlillar 1D (¹H, ¹³C) va 2D (HSQC, HMBC, HSQC-TOCSY, NOESY) YaMR spektrlari tahliliga asoslanib isbotlandi. ¹H YaMR spektrida δ_H 4.49–5.26 m.u. oralig‘ida anomer atomlarining signallari kuzatildi. Spektrlarda polisaxaridlarning asosiy komponentlari sifatida β -galaktopiranoza va α -arabinofuranoza qoldiqlari aniqlangan, shuningdek β -D-Glc p-1→ ga tegishli 106.26/4.49 m.u. (C-1/H-1) sohasida kuchsiz signallar kuzatilgan. GAG-*Sco* ning asosiy zanjiri (1→6)-bog‘langan β -D-galaktopiranoza qoldiqlaridan tashkil topgan bo‘lib, ularning ayrimlari C-2 holatida yon tarmoqlar hosil qiladi. Yon zanjirlarning aksariyati arabinoza, glyukoza hamda oligosaxarid arabinofuranozil fragmentlaridan iborat.

7-jadval. GAG-*Sco* fragmentining ¹³C va ¹H YaMR spektrlarini kimyoviy siljishi


Monosaxarid qoldiqlar	Kimyoviy siljishlar (δ , m.d.)					
	C1/H1	C2/H2	C3/H3	C4/H4	C5/H5	C6/H6
→6)- β -Galp-(1→ (A)	103.57 4.76	73.58 3.57	75.09 3.69	71.12 3.96	76.59 3.91	69.13 3.67, 3.95
→2,6)- β -Galp-(1→ (B)	106.12 4.49	86.74 4.24	75.09 3.57	71.55 4.04	76.60 3.71	70.29 3.80, 3.90
β -D-Glc p-1→ (C)	106.26 4.49	73.58 3.57	75.48 3.69	71.52 3.98	76.59 3.93	64.11 3.73, 3.84
α -L-Araf-(1→ (D)	110.82 5.12	83.99 4.24	79.55 4.05	85.47 4.21	63.90 3.78, 3.93	-
→5)- α -L-Araf(1→ (E)	112.17 5.26	81.79 4.15	79.44 4.04	85.47 4.21	70.12 3.80, 3.91	-

Spektrda 103.57 va 69.13 m.u. sohalarida kuzatilgan kimyoviy siljishlar β -(1→6)-bog‘langan galaktopiranoza qoldiqlarining C-1 va C-6 atomlariga mos keladi. Anomer atomlarining kimyoviy siljish qiymatlari galaktopiranoza qoldiqlarining β -konfiguratsiyasiga ega ekanligini ko‘rsatadi. 106.26 m.u. dagi kimyoviy siljish terminal glyukopiranoza qoldig‘iga xos (7-jadval). Arabinoza makromolekula tarkibida furanoza shaklida mavjud (110.82/5.12 m.u.). δ 110.82 m.u. dagi kuchli

signal $T-\alpha\text{-Araf}$ ning C-1 atomiga, 112.17 va 110.37 m.u. dagi kimyoviy siljishlari esa $1,5-\alpha\text{-Araf}$ ning C-1 atomlariga tegishli. 103–106 m.u. oralig'idagi signallar turli bog'lanish turlariga ega galaktoza qoldiqlarining anomer uglerod atomlariga mos keladi (5-rasm). 86.74 m.u. va 70.29 m.u. dagi signallar $\rightarrow 2,6)\text{-}\beta\text{-Galp}$ -(1 \rightarrow qoldiqlarini, 103.57 m.u. dagi signal esa $T-\beta\text{-Galp}$ ning C-1 atomini ifodalaydi. Shuningdek, 19.33 (C-6)/1.26 (H-6), 71.95 (C-5)/1.26 (H-5) hamda 74.77 (C-4)/1.26 m.u. (H-4) dagi kuchsiz kimyoviy siljishlar ramnopiranoza qoldiqlari mavjudligini ko'rsatadi. Biroq, ramnozaning qaysi monosaxarid qoldig'iga birikkanligini aniqlashning imkoni bo'lmadi (4,5-rasm).




5-rasm. ^{13}C YaMR spektr GAG-ScO




6-rasm. ^1H YaMR spektr GAG-ScO

Ikki o'lovli HSQC spektri va ^1H YaMR spektrining anomer sohalarida 5.12 va 5.26 m.u. dagi signallar mos ravishda $T-\alpha\text{-Araf}$ va $1,5-\alpha\text{-Araf}$ ning H-1 ga tegishli deb belgilandi. 4.76 m.u. va 4.41 m.u. dagi signallar esa mos ravishda $1,6-\beta\text{-Galp}$ va $T-\beta\text{-Galp}$ ning H-1 ga tegishli. $^1\text{H}/^{13}\text{C}$ HSQC spektrining anomer atomlari rezonans sohasida 104.49/4.49 va 105.47/4.41 m.u. da joylashgan signallar guruhi kuzatildi; ular $\beta\text{-D}$ -galaktopiranoza qoldiqlarining anomer uglerod atomlariga mos keladi. COSY, HSQC-TOCSY va HSQC spektrlari tahlili natijasida 1,6-bog'i bilan bog'langan va terminal $\beta\text{-D}$ -galaktopiranoza qoldiqlari mavjudligi aniqlandi.



7-rasm. HSQC-TOCSY GAG-ScO spektri



8-rasm. HSQC GAG-ScO spektri


NOESY spektrida quyidagi o'zaro qoldiq kross-pik mavjudligi kuzatildi: H-1(A)/H-6(B), H-1(D')/H-5(E) va H-2(B)/H-1(D, E). HMBC spektrida esa 4.49/70.29

m.u. da joylashgan kesishuvchi cho‘qqi 1,6- β -Galp qoldig‘ining H-1 va C-6 atomlari orasidagi o‘zaro bog‘lanishni ifodalaydi.

Shuningdek, α -Araf ning H-1 (5.12 m.u.) va β -Galp ning C-2 (86.74 m.u.) atomlari orasida kross-pik kuzatildi, bu esa α -Araf qoldig‘ining 1,6- β -Galp ning C-2 holatida bog‘langanligini tasdiqlaydi. $\rightarrow 1-\alpha-L-Araf-(5\rightarrow 1)-\alpha-L-Araf$ oligosaxarid fragmentining mavjudligi esa 5.12 (5.26)/70.12 m.u. da qayd etilgan o‘zaro ta’sir signallari orqali aniqlangan (7 va 8-rasmlar). Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, quyidagi o‘zaro qoldiq kross-piklar($\delta H/\delta C$) qayd etildi: 6A/1B, 1B/6A, 1D/2B, 1D’/2B, 5D’/1E, 1C/2B. Uglerod va proton atomlarining qolgan kimyoviy siljish qiymatlari 7-jadvalda keltirilgan.

Shunday qilib, GAG-Sco glukoarabinogalaktani tarmoqlangan polisaxarid bo‘lib, uning makromolekulasining asosiy zanjiri β -1,6 bog‘ bilan bog‘langan galaktopiranoza qoldiqlaridan tashkil topgan. Yon tarmoqlarida C-2 holatida terminal arabinofuranoza va glyukoza, shuningdek α -Araf-(5 \rightarrow 1)- α -Araf oligosaxarid fragmenti joylashgan. GAG-Sco ning tuzilishi *S. adenostegia* glukoarabinogalaktani tuzilishidan yon zanjirining tarmoqlanishi bilan, *S. baicalensis* glukoarabinogalaktani tuzilishidan esa polimer tarkibida atsetil guruhlari yo‘qligi bilan farq qiladi.

Olingan natijalarga asoslanib, GAG-Sco asosiy fragmentlarining tuzilishi quyidagicha ifodalandi:



Scutellaria adenostegia va *S. comosa* ning pektin moddalari

S. adenostegia (PM-1, 14.3%) va *S. comosa* (PM-2, 3.5%) yer ustki qismlaridan pektin moddalari ajratib olinib o‘rganildi, fizik-kimyoviy xossalari va biologik faolligi aniqlandi.

PM-1 va PM-2 krem rangli oq kukunlar bo‘lib, ular suvda eriydi va nisbiy qovushqoqlik darajasi 3.2 va 5.2 (c 1.0; H₂O), Mm 187 va 288 kDa bo‘lgan qovushqoq eritmalar hosil qiladi. IQ spektrlarida pektin moddalariga xos bo‘lgan yutilish chiziqlari aniqlangan. 1370 va 1365 sm⁻¹ sohalarida yutilishlar mavjudligi eterifikatsiyalangan PM ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu ma’lumotlar titrimetrik tahlil natijalariga mos keladi. Titrimetrik tahlil natijalari ko‘ra, *S. adenostegia* o‘simligining pektin moddalari o‘rta darajadagi eterifikatsiyalangan (54%), *S. comosa* ning PM esa quyi eterifikatsiyalangan (44.4%) pektinlardir (8-jadval).

